

“FARHOD VA SHIRIN” DOSTONINI O‘RGANISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Jalolova Dilshoda Jamil qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti magistri*

Annotatsiya: Mazkur maqola umumiy o‘rta ta’lim tizimidagi Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonini o‘qitishda bir qator metodlar hamda metodik tavsiyalar o‘rin olgan.

Kalit so‘zlar: mumtoz adabiyot, interfaol usul, metodlar, texnologiyalar.

Shaxsni barkamol bo‘lib yetishishiga, eng muhimi, uning ma’naviy dunyosini boyishiga sabab bo‘ladigan omillardan biri – bu badiiy adabiyotdir. Aslini olganda o‘zbek milliy adabiyotimizning poydevorini qurgan, uni jahon miqyosida san’at darajasiga ko‘targan buyuk daho Alisher Navoiy bo‘lib, bu buyuk zotning ummonga teng asarlari, ayniqsa, jahon adabiyotidan muhtasham o‘rin olgan “Xamsa” asari asrlar osha bashariyatning bebaho durdonasi, ma’naviy – ma’rifiy, axloqiy – estetik mulkiga aylandi. Ana shunday so‘z san’atining durdonasi hisoblangan “Xamsa” asarini o‘rganish, ayniqsa, Navoiy idealini o‘quvchilarga yetkazish ko‘p jihatdan o‘qituvchining ilmiy – nazariy bilimi, dars berish san’ati, aniqrog‘i, “Xamsa” asaridagi qahramonlar sarguzashti va idealini tahlil qilishga bog‘liq. Umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan fanlar orasida adabiyot inson ma’naviy qiyofasini tashkil etadigan ruhiy holat, tushuncha, tasavvur, kayfiyat, orzu-umid, mayl va qiziqishlarni yuzaga keltirishning beqiyos imkoniyatlariga egaligi tufayli o‘quvchilarda ezgu ma’naviy sifatlarni shakllantirishda yetakchi mavqeda turadi. U o‘quvchilar ma’naviy dunyosini qaror toptirishning chegarasiz maydonidir. Bunga erishish uchun adabiyot o‘qitish jarayonida o‘rganiladigan badiiy asarning janri, tabiati, badiiy xususiyatlariga mos metod va usullar tanlanishi kerak bo‘ladi. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etgan. Beaho asalari, ular qa’riga nihon ma’noolar tufayli u hamon o‘zbek adabiyotining tengsiz namoyandasi, millatimizning g‘ururi bo‘lib kelmoqda. Buyuk so‘z san’atkorning lirikasi cheksiz ummon bo‘lsa, qo‘llangan badiiy vositalar, so‘z o‘yinlari, betakror tashbehlar duru gavharlar kabidir. Alisher Navoiy ijodi umumta’lim maktablarida bosqichma bosqich o‘rgatilib kelinadi. 5-sinfda Navoiy hayoti va ijodi. “Hayrat ul-abror” dostonida berilgan “Sher bilan Durroj” hikoyati¹, 6-sinfda “Mahbub ul-qulub” asaridagi hikmatlar², 7-sinfda “Mehr va Suhayl”

¹ Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. II qism / S. Ahmedov, B. Qosimov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. – T.: Sharq, 2020. 156-bet.

² Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. II qism / S. Ahmedov, R. Qo‘chqorov, Sh. Rizayev. – T.: Ma’naviyat, 2017. 32-bet.

(“Sab’ ai sayyor”dan)³, 8-sinfda Shoirning ruboiy, tuyuq va fardlaridan na’munalar va ularning tahlili⁴, 9-sinf “Farhod va Shirin” dostoni (“Xamsa”)⁵, 10-sinfda Navoiy lirikasi, “Ko’zung ne balo qaro bo’lubtur...”, “Meni men istagan...”, “Ey sabo...” g’azallari⁶, 11-sinfda esa “Saddi Iskandariy” (“Xamsa”)⁷ mavzulari berilgan.

Interfaol usullar adabiy ta’limda o’qituvchi va o’quvchilar o’rtasidagi o’zaro tenglikka asoslangan faol muloqot, ta’lim jarayonida o’quvchilarning yetakchilik qilishlari, bir-birlari bilan fikr almashishlari, o’rganilayotgan mavzu yoki o’quv materiali bo’yicha mustaqil fikrlash, o’z qarashlarini ilgari surish, ularni dalillar yordamida asoslash va ma’lum xulosalarga kelish orqali ta’lim maqsadlariga erishish imkonini beradi.

Interfaol metodlar bir qator qo’shimcha didaktik imkoniyatlarga ega:

- o’qituvchi va o’quvchi, o’quvchi va o’quvchi, har bir o’quvchi va barcha o’quvchilar o’rtasida o’zaro ta’lim hamkorligini yuzaga keltiradi;
- o’quvchilarning o’qituvchi bilan samarali muloqotiga erishiladi;
- o’quvchilarda asar yuzasidan mustaqil fikrlash, muammo qo’yish, yechim izlash, qaror qabul qilish va xulosaga kelish malakasini shakllantiradi;
- o’quvchilarda mumtoz epik asarni individual tarzda idrok etish va izohlash ko’nikmasini yuzaga keladi.

Ko’rinadiki, keyingi vaqtda keng tarqalayotgan zamonaviy ta’lim usullari o’quvchilarning mustaqil o’qishlari va erkin fikrlashlarini ta’minlashda katta samara keltiradi.

Quyidagu metodlar ham o’quvchiga asarni tushunib tahlil qilishiga samarali xizmat qiladi.

“Men-detektiv” metodi.

Sinfdagi o’quvchilar dan bir kishi **detektiv** qolgan 3 nafar o’quvchi **guvoh** ishtirok etadi. Bunda 3 nafar guvoh ditektivga svolemas ko’rsatmalar berib boradi.


³ Adabiyot: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik-majmua/ Q.Yo’ldoshev, B.Qosimov, V.Qodirov, J.Yo’ldoshbekov– T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, 2017.173-bet.

⁴ Adabiyot: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik. I qism / S. Ahmedov, S.Olim, R. Qo’chqorov,. – T.: “G’afur G’ulom nomidagi nashriyot matbaa-ijodiy uyi” 2014

⁵ Adabiyot: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik-majmua / Q.Yo’ldoshev, V.Qodirov, J.Yo’ldoshbekov. – T.: O’zbekiston, 2019. 53-bet.

⁶ Adabiyot: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 10-sinfi uchun darslik. I qism / B.To’xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. 82-bet

⁷ Adabiyot: Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. I qism / B.To’xliyev, B.Karimov, K.Usmonova. – T.: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2018. 123-bet.




Agar detektiv birinchi guvohning ko'rsatmasiga binoan gap kim yoki qaysi asar haqida gap ketayogonligini topsa birinchi darajali detektiv, agar ikkinchi guvohning ko'rsatmasiga binoan topsa ikkinchidarajali detektiv, agar uchinchi guvohning ko'rsatmasiga qarab topsa uchinchidarajali detektiv maqomi beriladi. Shu tarzda yana qolgan o'quvchilar ham detektiv tarzda doskaga chiqariladi. Eng yaxshi o'rsatma bergan guvohlar ham baholanib boriladi.



2-darajali
detektiv



1-darajali
detektiv



3-darajali
detektiv

Misol tariqasida quyidagi ko'rsatmalarni berish mumkin birinchi guvohlar:

Bolaligidayoq Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy esa yosh shoir ijodiga yuksak baho bergan. Mavlono Jomiyga ham do'st, ham shogird bo'lgan, Kamol Turbatiy e'tirofini qozongan adib kim?

Onasi (Abu Said Changning qizi). Gap kim haqida?

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlari keltirilgan: "Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir" kimga ta'rif berilgan?

Shu tarzda mavzu yanada mustahkamlanib o'quvchilarning faolligi yanada oshirilishiga ushbu interaktiv metod xizmat qiladi.

“Mosini top” metodi.


Izoh	Farhod	Shirin	Mehinbonu	Xusrav	Chin xoqoni
Yolg‘iz farzand	*	*		*	
Taxtni rad etish	*				
Hushidan ketish	*	*			
Kuchli zehni bo‘lish	*	*	*	*	*
Saroy qurdirish					*
Yolg‘on ishlatish				*	

Bunda berilgan ma’lumotlar qaysi qahramonga tegishli bo‘lsa shu katakka yulduzcha belgisi qo‘yib boriladi.

Keying interfaol usulimiz “Uch so‘z-uch kalit” deb nomlanadi.



Doskaga bir nafar o‘quvchi chiqariladi. Bu o‘quvchini yanada qiziqtirish maqsadida magistr deb nomlaymiz. Qolgan o‘quvchilarni bakalavr deb ataymiz. Doskaga chiqqan magstrga bakalavrga 3 ta ketma ket kalit so‘z aytiladi. Aytilgan shu kalit so‘z o‘quvchi tomonidan izohlab sharhlab ochib beriladi. Ikkinchi va uchinchi so‘zlar ham magistr hukmiga havola qilinadi. To‘g‘ri izohlab ochib berilgan so‘z uchun magistr o‘quvchiga bitta kalit beriladi. Natijada o‘quvchida to‘plagan kalitiga qarab baholanadi. G‘olib bo‘lgan o‘quvchiga magistr bosh kiyimi kiydiriladi.



“**Tanlab ol**” metodi. Bunda o‘quvchilar berilgan ma’lumot to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini topishadi.

“**Dumaloq qor**” metodi bo‘lib, kichik bir dumaloqdek tasavvur qilingan detal. Ma’lumotlar aytilishi bilan kattalashib ketaveradi. Ikki guruhga ajratiladi. Guruhdagi o‘quvchilar ketma-ketlikda ma’lumot aytishadi. Qaysi guruh 5 sekund ichida ma’lumot aytolmasa, bitta ishtirokchisidan ayriladi va guruhlarda oxirgi ishtirokchi qolgunicha o‘yin davom etadi. Qaysi guruhda ishtirokchi qolsa, ma’lumotlar to‘g‘ri ketma-ketlikda aytilsa, o‘sha guruh g‘olib bo‘ladi.

O‘qitishning zamonaviy usullari har turli bo‘lib, ularning hammasi ham har qanday didaktik usullar kabi o‘qituvchidan alohida tayyorgarlik ko‘rishni talab qiladi. Chunonchi vaqt, maydon va inson resurslaridan o‘rinli va maqsadli foydalanish darsdan kutilgan natijani kafolatlovchi muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
2. Hayitmetov A. Adabiyotimiz tarixining o‘z izohlari. “Sharq yulduzi” jurnali. –1971, № 12.
3. Hayitmetov A. Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari. – Toshkent: Fan, 1959.
4. Qayumov A. Alisher Navoiy (ajoyib kishilar hayoti). – Toshkent: Sharq, 1976.
5. Qayumov A. “Farhod va Shirin” sirlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1979.
6. Yo‘ldoshev Qozoqboy. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
7. Tojiboyeva O.T. “Alisher Navoiy “Xamsa”sining nasriy bayonlari: tamoyil, mezon va uslub”. – Toshkent: Nodirabegim, 2020.